



## O'QITUVCHI KASBI VA FAOLIYATIDA QO'LLANILADIGAN NEOLOGIZMLAR

*Jumayev Elmurod Bekpulatovich*

*Axborot texnologiyalari va menejment*

*universiteti dotsenti v.b, fffd (PhD)*

*[elmurodjumayev272@gmail.com](mailto:elmurodjumayev272@gmail.com)*

*Bektosheva Diyora Sherzod qizi*

*Axborot texnologiyalari va menejment*

*universiteti*

*O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*Sherzodxolmatov [1219@gmail.com](mailto:1219@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada o'qituvchi kasbi va uning zamonaviy faoliyatida keng qo'llanilayotgan neologizmlar (yangi so'z atamaları) haqida batafsil fikr yuritadi. Ta'lim tizimining rivojlanishi, raqamli texnologiyalar kirib kelishi va global ta'lim standartlarining joriy etilishi natijasi o'qituvchi nutqida yangi so'zlar paydo bo'lmoqda. Maqolada neologizmlarning mazmuni va ularning turlari, o'qituvchi faoliyatida ishlatilish sabablari, amaliy misollar hamda ularning o'zbek tiliga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik jarayonlarda uchraydigan atamalar va ularning qo'llash doirasi ham tahlil qilinadi. O'qituvchi kasbi va uning zamonaviy faoliyatida keng qo'llanilayotgan neologizmlar (yangi so'z va terminlar) masalasi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada neologizmlarning kelib chiqish manbalari, ularning til taraqqiyotidagi o'rni, zamonaviy ta'lim jarayonida kirib kelish sabablari hamda o'qituvchi faoliyatida qo'llanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan neologizmlar mazmuniga ko'ra texnologik, metodik,



baholash tizimi bilan bog‘liq hamda boshqaruvga oid guruhlarga ajratib, ularning dars jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar.** Neologizm, ta‘lim, pedagogika, raqamli texnologiya, innovatsiya, kompetensiya, metodika, interfaol metod, platform, onlayn dars, testologiya, monitoring, baholash tizimi.

**ANNOTATION.** This article discusses in detail the neologisms (new words and terms) widely used in the teaching profession and its modern activities. As a result of the development of the education system, the introduction of digital technologies and the introduction of global educational standards, new words are appearing in the teacher's speech. The article covers the content of neologisms and their types, the reasons for their use in teaching, practical examples and their impact on the Uzbek language. It also analyzes the terms found in modern pedagogical processes and their scope of application. The issue of neologisms (new words and terms) widely used in the teaching profession and its modern activities is analyzed from a scientific, theoretical and practical perspective. The article covers the sources of origin of neologisms, their role in language development, the reasons for their introduction into the modern educational process and the features of their use in teaching. The article also divides the neologisms used by teachers into technological, methodological, assessment system-related and management groups according to their content, and reveals their importance in the teaching process.

**Keywords.** Neologism, education, pedagogy, digital technology, innovation, competence, methodology, interactive method, platform, online lesson, testology, monitoring, assessment system.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье подробно рассматриваются неологизмы (новые слова и термины), широко используемые в педагогической профессии и ее современной деятельности. В результате развития системы образования, внедрения цифровых технологий и глобальных образовательных стандартов в



речи учителей появляются новые слова. В статье рассматривается содержание неологизмов и их типы, причины их использования в обучении, практические примеры и их влияние на узбекский язык. Также анализируются термины, встречающиеся в современных педагогических процессах, и сфера их применения. Вопрос о неологизмах (новых словах и терминах), широко используемых в педагогической профессии и ее современной деятельности, анализируется с научной, теоретической и практической точек зрения. В статье рассматриваются источники происхождения неологизмов, их роль в развитии языка, причины их внедрения в современный образовательный процесс и особенности их использования в обучении. В статье также неологизмы, используемые учителями, по содержанию делятся на технологические, методические, связанные с системой оценивания и управленческие группы, и раскрывается их значение в процессе обучения.

**Ключевые слова.** Неологизм, образование, педагогика, цифровые технологии, инновации, компетентность, методология, интерактивный метод, платформа, онлайн-урок, тестология, мониторинг, система оценки.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyatning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Ta'limdagi yangilanishlar, yangi pedagogik texnologiyalar, raqamki platformalar, xalqaro standartlarning joriy etilishi o'qituvchi kasbiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, til ham doimiy ravishda rivojlanib boradi. Til taraqqiyoti jarayonida yangi tushunchalar, yangi ijtimoiy hodisalar va yangi yo'nalishlar paydo bo'lishi natijasida yangi so'zlar – neologizmlar yuzaga keladi[1]. Ayniqsa, o'qituvchi faoliyatida zamonaviy atamalar ko'payib, dars jarayonida tez-tez ishlatilmoqda. Masalan: onlayn dars, webinar, platform, kompetensiya, kredet modul, interaktiv metod, smart ta'lim kabi so'zlar ta'lim sohasining ajralmas qismiga ayalanib bormoqda.



O'qituvchi kasbida qo'llaniladigan neologizmlarni o'rganish, ularning turlari va amaliy ahamiyatini yoritish hamda o'zbek tilidagi ta'lim terminologiyasining boyish jarayonini tahlil qilish maqolaning maqsadidir. Bugungi globallashuv davrida barcha sohalar singari ta'lim tizimi ham tubdan yangilanib bormoqda. Ta'lim mazmunining yangilanishi, o'quv dasturlarining takomillashuv, pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning keng joriy etilishi natijalari o'qituvchi kasbi oldiga yangicha talablar qo'yilmoqda[2]. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, psixologik, yo'naltiruvchi, innovator raqamli texnologiyalarni biluvchi mutaxassis sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Bunday jarayonlar o'z navbatida o'qituvchining kasbi faoliyatiga oid nutq va terminologiyalarni ham boyitmoqda. Ya'ni o'qituvchi dars jarayonida, metodik yig'ilishlarda, hujjatlar bilan ishlashda va pedagogik muloqotda ko'plab atama va iboralarni qo'llab boshladi. Bu esa o'zbek tilining lug'at tarkibiga yangi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa so'ngi yillarda "kompetensiya", "kredit-modul", "platforma", "monitoring", "refleksiya", "interfaol metod", "electron jurnal", "webinar", "onlayn dars" kabi terminlar o'qituvchi nutqining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

**ASOSIY QISM.** Neologizm-bu tilda yangi paydo bo'lgan so'z yoki yangi ma'noda ishlatila boshlagan so'zdir[3]. Neologizmlar jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy- texnik o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Ta'lim sohasida ham yangiliklar ko'paygani sari yangi terminlar paydo bo'ladi[4]. Neologizmlar odatda quyidagi holatlarda paydo bo'ladi: yangi texnologiya va innovatsiyalar kirib kelganda; yangi pedagogik metodlar va yondashuvlar paydo bo'lganda; xorijiy tajribalar ta'limga tatbiq etilganda; xalqaro ilmiy terminlar o'zlashganda; yangi kasbiy yo'nalishlar paydo bo'lganda.

O'qituvchi kasbi bilan bog'liq neologizmlar aynan shu jarayonlar natijasida shakllanmoqda. O'qituvchi kasbi va faoliyati uchraydigan neologizmlar asosan



quyidagi manbalardan kelib chiqadi: 1.Xorijiy tillardan o‘zlashgan neologizlar. Talim sohasida ingliz va rus tillaridan o‘zlashgan terminlar juda ko‘p[5].. Chunki zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar ko‘pincha xorijda yaratilgan bo‘ladi. Masalan: feedback (fikir–mulohaza), assessment (baholash), webinar (onlayn seminar), coaching (yo‘naltirish, murabbiylik), leadership (yetakchilik), workshop (amaliy mashg‘ulot), soft skills (yumshoq ko‘nikmalar), hard skills(kasbiy ko‘nikmalar). Bu terminlar o‘qituvchi nutqiga kirib kelib, dars jarayonida tez-tez qo‘llanmoqda. Ba’zi yangi terminlar o‘zbek tilidagi so‘z yasash vositalari orqali ham shakllanadi. Masalan: bilimdonlik, yangilanish, masofaviy ta’lim, elektronlashtirish, raqamlashtirish, qayta tayyorlash, malaka oshirish, innovatsion yondashuv bu so‘zlar tilimizning imkoniyatlari kengligini ko‘rsatadi.

**TAKLIF VA MULOHAZALAR.** O‘qituvchi kasbi va faoliyatida neologizmlar muhim o‘rin tutgani sababli ularni ilmiy jihatdan tartibga solish va amaliyotga to‘g‘ri joriy etish zarur. Shuning uchun quyidagi taklif va mulohazalar bildiriladi: 1. O‘zbek tilida ta’lim terminlari lug‘atini yaratish, hozirgi kunda ta’limga oid terminlar ko‘paygan. 2. Chet so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini targ‘ib qilish, terminining o‘zbekcha muqobili mavjud bo‘lsa, uni keng qo‘llash kerak. 3. Neologizmlarni dars jarayonida izohlab berish, yangi termini ishlatganda uni tushuntirsa, o‘qituvchi termini tezroq o‘zlashtiradi. 4. O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq neologizmlar ko‘paygani sababli o‘qituvchilarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish zarur. 5. Rasmiy hujjatlarda terminlarni bir xil standartda ishlatish, hozirda bir termin turli shaklda yozilishi mumkin. 6. Neologizmlar orqali o‘qituvchilarda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish, o‘qituvchi yangi terminlarni o‘rgatish orqali o‘qituvchilarni zamonaviy fan va texnologiyalarga qiziqtirishi mumkin.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi kasbi va faoliyatida qo‘llaniladigan neologizmlar zamonaviy ta’lim taraqqiyotining muhim belgisi



hisoblanadi. Ta'lim tizimining yangilanishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, innovatsion metodlarning paydo bo'lishi hamda xalqaro tajribalarning tadbiq etilishi natijasida o'qituvchi nutqida yangi termin va iboralar tobora ko'paymoqda. Bu holat o'zbek tilining lug'at boyligini oshirish, ta'lim terminologiyasini kengaytirish va pedagogik jarayonni zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda. Neologizmlar o'qituvchi faoliyatida dars jarayonini samarali tashkil etish, yangi metodlarni tushuntirish, o'quvchilar bilan muloqotni kuchaytirish va zamonaviy bilimlarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ular o'quvchilar tafakkurini rivojlantirib, ularda global dunyoqarash va terminologik savodxonlikni shakllantirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 2006.
- 2.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2002.
- 3.Yo'ldoshev M. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2010.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmon va qarorlari to'plami. Toshkent, 2017-2023.
- 5.Saidova M. Zamonaviy ta'lim terminlari va ularning o'zbek tilidagi qo'llanishi. Ilmiy maqolalar to'plami, 2020.